

18-ASR CHET EL YOZUVCHILARINING ASARLARIDA OTA VA FARZAND MUNOSABATLARI

Foxirova Umida Namozovna

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 18-asr chet el yozuvchilarining asarlarida ota va farzand o'rtasidagi munosabatlarning o'sha davr voqealigi bilan yoritib berilishi tahlil etilgan. 18-asrda adabiyotning jamiyatda tutgan o'rni. Romantisizm va klassitsizm davrida adabiyot namoyondalarining ijod faoliyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: romantizm, klassitsizm, uyg'onish davri, o'rta asr, fantastika, avantyura, ma'rifat.

18-asr jahon adabiyotida – aql idrok g'oyalari ustunlik qilgan davr bo'lib, u davrda yozuvchilar aql-idrok, mantiq va ilm-fanni targ'ib qiladilar. Bu davrda yozuvchilar insonning o'ziga xosligini va siyosiy muammolarini hal qilishga harakat qiladilar. Romantizm (frans. romantisme) - 18-asrning 1-yarmi - 19-asrda Yevropa, shuningdek, Amerika adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan hamda jahon bo'ylab keng tarqalgan oqim. Romantizm- ispancha "romans" so'zidan olingan bo'lib, bu so'z dastlab lirik va qahramonlik mazmunidagi qo'shiqni, keyinchalik esa ritsarlar haqidagi katta epik asarlarni anglatgan. "Romantik" sifatdoshi 17-asrda roman tillarida yozilgan avantyura va qahramonlik ruhi bilan sug'orilgan asarlarga nisbatan qo'llana boshlagan. Ingliz yozuvchilari va adabiyotshunoslari 18-asrda O'rta asrlar va Uyg'onish davrlari adabiyoti haqida bahs borganda shu so'zdan foydalanganlar. Angliyaga romantizimning kirib kelishi arafasida (18-asrning 2-yarmi) she'riyatning muhim unsuri hisoblangan barcha g'ayrioddiy, sirli, g'aroyib va fantastik narsalar (tuyg'ular, holatlar, sarguzashtlar) romantik so'zi orqali ifodalana boshlagan. 18-asr oxirida Germaniyada, 19-asr boshlarida esa Fransiyada, shuningdek, Italiya, Polsha, Rossiya kabi mamlakatlarda

romantizm klassitsizmdan farqlanuvchi adabiy oqimning nomi sifatida iste'molga kirgan.

Romantizm Yevropadagi barcha mamlakatlarni o'z qamroviga olgan g'ayri ma'rifatparvarlik harakatining samarasidir. Buyuk fransuz inqilobining natijalaridan qoniqmaslik bu oqimning paydo bo'lishida ijtimoiy zamin bo'lib xizmat etgan. Burjua jamiyatidagi turmush tarziga, jamiyat a'zolaridagi xudbinlik va axloqsizlik ko'rinishlariga qarshi kayfiyat, sanoat, siyosat va ilmfan sohalaridagi taraqqiyotning yangi ziddiyatlarni keltirib chiqarishi romantiklarda mutlaq ideallarga intilish hissini uyg'otdi. Ular hayotni qisman takomillashtirishni emas, balki undagi barcha ziddiyatlarni butunlay bartaraf etishni orzu qildilar. Ideal bilan voqelik o'rtasida katta farqning borligi Romantizmda o'zining yorqin ifodasini topdi va bu hol romantizmga xos ikki yo'nalishning mohiyatini belgilab berdi. Agar ayrim romantiklar ijodida hayotda aql bovar qilmaydigan, sirli kuchlar hukmronlik qiladi, binobarin, taqdirga tan berish kerak, degan fikr ustuvorlik qilgan bo'lsa (U. Vordsvort, S. T. Kolrij, R. Sauti, F. R. Shatobrian, V. A. Jukovskiy), boshqa birlari (J.N. Bayron, P. B. Shelli, A. Mitskevich, M. Yu. Lermontov) ijodida zulm va zo'ravonlik dunyosiga qarshi kurash va undan norozilik kayfiyati yetakchi ahamiyatga ega. Romantizmda ideal bilan voqelik o'rtasidagi ziddiyatni ifodalovchi vositalardan biri kinoya (A. Myusse, G. Geyne va boshqalar). Dastlab kinoya har qanday tarixiy voqelik nisbiydir, degan fikrning e'tirof etilishini anglatgan bo'lsa, keyinchalik romantik ideallarning ro'yobga chiqmasligini anglash hissi bilan to'yingan. Romantizm namoyandalari jamiyatdagi rangsiz hollarga qarshi o'laroq fantastika, xalq rivoyatlari, tabiat manzaralari, o'tgan tarixiy kunlar, olis xalqlar va mamlakatlar turmushi, urf-odatlar hamda xulq atvorlarini tasvir doirasiga tortdilar; katta ishqiy ehtiroslar va ruhiy hayot tasviriga alohida e'tibor berdilar. Shu sababdan din, san'at va falsafaning romantizmdagi o'rni va ahamiyati mislsiz darajada oshdi.

Klassitsizm estetikasidagi "tabiatga taqlid" tamoyiliga qarshi o'laroq romantiklar san'atkorning ijodiy faolligini o'zlarining ustuvor aqidalari deb bildilar. San'atkor,

romantizm estetikasiga ko'ra, real olamni o'zgartirish huquqiga ega: u o'zining go'zal va haqiqiy, binobarin, real olamini yaratadi; modomiki, san'at bu olamdagi eng yuksak qadriyatni tashkil etar va bu olamning mohiyatini ifodalay ekan, demak, u reallikdir. San'at asari, romantizm estetikasiga ko'ra, bamisoli tirik organizm, badiiy shakl esa mazmunning po'stlog'i yoki g'ilofi emas, balki shu mazmunning ichidan o'sib chiquvchi va mazmun bilan uzviy ravishda bog'liq hodisa. Romantiklar estetikadagi mezonlashtirish hollarini, san'atning yaxshi maqsadda bo'lsada, muayyan chegara ustunlari bilan o'ralishini inkor etib, san'atkorning ijodiy erkinligini ehtiros bilan himoya qildilar. Shunga qaramay, ular o'zlarining yangi estetik qonun va qoidalarini ham ishlab chiqdilar .

18-asr chet el yozuvchilari asarlarida ota va farzand munosabatlari mavzusida qaytmoqchi bo'lsak, ko'pincha murosasiz tarzda tasvirlanadi. Bu davrda ota va farzand munosabatlarini aks ettiruvchi asarlar. Ayniqsa klassik adabiyotda, oilaviy, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq ifodalanadi. Masalan fransuz yozuvchisi Volter o'z asarlarida ota va farzand munosabatlarini ko'plab ijtimoiy va axloqiy masalalar bilan bog'lagan. Uning "Kandida" (Candide) asarida, ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar ba'zan nafrat, ba'zan esa umidsizlikka olib keladi, Farzandlar ota va bobolarining oqibatlarini o'rganishadi, ularning qarorlari va ijtimoiy sharoitlaridan qanday qilib chiqishlarini ko'rsatadi. Jonatan Swift o'zining mashhur asari "Guliverning sayohatlari" da ota va farzand o'rtasidagi ijtimoiy va axloqiy masalalarni masxara qilish orqali tanqidiy yondashadi. Ota va farzandning o'zaro munosabatlari ba'zida an'anaviy va bir-birini tushunmaslik shaklida namoyon bo'ladi. Bu asar faqat ota va farzand o'rtasida emas, balki jamiyatning ijtimoiy strukturalari, ta'lim va axloqiy qadriyatlar haqidagi muamolarini ham ko'taradi. O'sha davr rus adabiyotiga ham nazar solmoqchi bo'lsak Goncharov va Pushkin rus yozuvchilari asarlarida ota va farzand munosabatlari mavzusi aks ettirilgan. Ayniqsa Pushkinning asarida ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha murakkab, ba'zan esa o'zaro tushunmovchilikka olib keladi. "Yevgeniy Onegin" asarida, masalan, Oneginning

ota-bobolariga nisbatan befarq qarashi va uning farzandlik munosabatlari muhim bir mavzu sifatida ko'rsatilgan. Jeyms Makpind ruhiy va axloqiy aloqalari, ularning o'zaro ziddiyatlari va bir-birini anglashga intilishi ko'plab sahifalarda o'z ifodasini topadi. Makpind asarlarida ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha avlodlar o'rtasidagi tafovutlarni shaxsiy intilishlarni va axloqiy tanlovlarni tasvirlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 18- asr yozuvchilarining asarlarida ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar ko'p hollarda ijtimoiy, axloqiy, ruhiy va iqtisodiy omillararga bog'liq ravishda shaklanadi. Bu munosabatlar ko'plab hollarda avlodlar o'rtasidagi tafovutlar farq qiluvchi qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar bilan belgilangan. Yozuvchilar ota va farzand munosabatlarini o'z asarlarida ko'pincha tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Micheal Alexander, The history of English literature, Bloomsbury Academy, 2017 (60-62 pages)

2. Angela Vietto, Research Guide to American Literature : Early American Literature, 1776-1820. New York . 2010 (20-25 pages)

3. W F. Collier, A history of English literature, Frankfurt am Main, 2020 (50-58 pages)

4. Encyclopedia Britannica. "Romanticism"